



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№12  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,  
2-dekabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari .....	26
<b>Xuseynova Abira Amanovna</b>	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
<b>Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna</b>	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
<b>Abdurasulova Gulrux Habibullayevna</b>	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari .....	40
<b>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinoz Elyorjon qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
<b>Asatova Dildora Aslamovna</b>	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
<b>Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna</b>	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik reabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi .....	52
<b>Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna</b>	
The Concept of Symbols in Linguoculturology .....	56
<b>Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi</b>	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
<b>Mirxalilova Nargiza Akbarovna</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish .....	63
<b>Mitaliboyeva Dildora</b>	
Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish .....	66
<b>Nartayeva Shahoza Yulchibayevna</b>	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
<b>Normatova Nilufar Komilovna</b>	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
<b>Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya</b>	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish .....	80
<b>Qodirov Jurabek Mamatsimonovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model.....	83
<b>Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi</b>	
“Sab'ai sayyor” asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar .....	87
<b>Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi</b>	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri .....	91
<b>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna</b>	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
<b>Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li</b>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish .....	99
<b>Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli .....	102
<b>Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	106
<b>Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo</b>	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili .....	109
<b>Xusanov Samariddin Maxmadaminovich</b>	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari .....	112
<b>Yarashev Jo'rabek To'rayevich</b>	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки .....	117
<b>Габдульманова Ильнура Минисламовна</b>	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов .....	119
<b>Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи</b>	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
<b>Уразова М. Б., Усманова У. Б.</b>	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..	130
<b>Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли</b>	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
<b>Юсупова Зулайхо Бахром кизи</b>	



# BUYUK IPAK YO'LI XALQLARI O'RTASIDAGI PEDAGOGIK VA MADANIY ALOQALARNING VUJUDGA KELISHI

UDK: 37.07.

Mirxalilova Nargiza Akbarovna  
IYIU v.b. dotsenti



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ipak yo'li bo'yab joylashgan xalqlar o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning shakllanishi, rivojlanishi hamda tarixiy ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi. Qadimdan Sharq va G'arb tamaddunlarini bog'lab turgan ushbu yo'nalish ilm-fan, ma'rifat, ta'lim tizimi, san'at va madaniyatning o'zaro boyishiga beqiyos hissa qo'shgan.

**Kalit so'zlar:** Ipak yo'li, pedagogik aloqalar, madaniy almashinuv, qadimgi sivilizatsiyalar, ta'lim tarixi, Markaziy Osiyo.

**Abstract:** This article examines the historical formation, development, and significance of pedagogical and cultural relations among the peoples along the Silk Road. Serving as a bridge between Eastern and Western civilizations, the Silk Road played a crucial role in the exchange of knowledge, educational practices, science, arts, and cultural traditions.

**Key words:** Silk Road, pedagogical relations, cultural exchange, ancient civilizations, history of education, Central Asia, knowledge transmission, trade routes.

**Аннотация:** В статье рассматриваются процессы возникновения, развития и исторического значения педагогических и культурных связей между народами, расположенными вдоль Великого шёлкового пути. Этот путь служил мостом между цивилизациями Востока и Запада, оказывая существенное влияние на обмен знаниями, образовательными практиками, наукой, искусством и культурными традициями.

**Ключевые слова:** Шёлковый путь, педагогические связи, культурный обмен, древние цивилизации, история образования, Центральная Азия.

## KIRISH

Ipak yo'li insoniyat tarixida nafaqat savdo yo'li, balki ulkan madaniy, ilmiy va pedagogik almashuv maydoni sifatida muhim o'rin tutadi. Sharq va G'arbni bog'lagan ushbu yo'nalish orqali fan, ma'rifat, ta'lim usullari, falsafa, san'at va diniy qarashlar keng hududlarga tarqalgan. Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududi ushbu jarayonning markazida bo'lgan. Buyuk allomalar – Imom Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Al-Xorazmiy kabi mutafakkirlarning asarlari Ipak yo'li orqali boshqa xalqlar madaniy hayotiga kirib borgan. Ushbu maqolaning maqsadi – Ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelish jarayonini tarixiy dalillar asosida yoritish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ipak yo'li tarixi va uning madaniy-pedagogik ahamiyatini o'rganishda Markaziy Osiyo va jahon sharqshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim o'rinni egallaydi. V. V. Bartholdning Turkiston tarixiga bag'ishlangan fundamental asarlarida Markaziy Osiyoning Sharq va G'arb o'rtasidagi ilmiy-madaniy almashinuvdagi o'rni keng yoritilgan bo'lib, u Samarqand, Buxoro va Xorazm ilmiy maktablarining shakllanishini tarixiy manbalar asosida asoslab beradi. Al-Biruni, Ibn Sino kabi allomalar ilmiy merosining boshqa sivilizatsiyalar rivojiga ta'siri ham ushbu manbalarda qayd etilgan. Mahalliy madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, til va ilm an'alarining tarqalishi haqidagi ilmiy yondashuvlar Ipak yo'lining ilmiy-pedagogik platforma sifatidagi rolini tasdiqlaydi.

G'arb tadqiqotchilari ham Ipak yo'lining transmilliy ahamiyatini chuqur o'rgangan. C. Beckwith va V. Hansen o'z asarlarida ushbu yo'lining shakllanishi, savdo va ilmiy almashinuv jarayonlari haqida tarixiy manbalar asosida tahliliy yondashuv beradi. Ular Xitoy yilnomalaridagi diplomatik missiyalar, ilmiy sovg'alar, tarjimalar va ma'rifiy aloqalarni tahlil qilib, Sharq va G'arb o'rtasidagi ta'limiy-madaniy aloqalar ko'lami naqadar keng bo'lganini ochib beradi. Shuningdek, L. Boulnois Ipak yo'li orqali tarqalgan diniy ta'limotlar, madaniy qadriyatlar va pedagogik merosning xalqaro xarakterini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoning ilmiy uyg'onish davri va uning jahon sivilizatsiyasiga ta'siri haqidagi manbalar ham Ipak yo'li mavzusining dolzarbligini kuchaytiradi. S. Frederick Starning "Lost Enlightenment" asarida IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan ilmiy maktablar va ulardagi ta'lim jarayonlari yoritilgan bo'lib, Beruniy, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino kabi allomalar faoliyati Ipak yo'li orqali ilmiy g'oyalar tarqalishiga asos bo'lganligi ta'kidlanadi. Xitoyning "Hanshu" va "Tangshu" yilnomalari, shuningdek UNESCOning "Silk Roads Programme" loyihasidagi ilmiy hisobotlar Ipak yo'li xalqlarining madaniy, pedagogik va ilmiy hamkorligiga doir zamonaviy ilmiy yondashuvlarni to'ldiradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot usullari. Izlanishlar quyidagi ilmiy metodlar asosida tayyorlandi:

1. **Tarixiy-tahliliy metod** – qadimiy manbalar, tarixiy solnomalar va sharq manbashunosligiga oid materiallarni o'rganish Ipak yo'li bo'yicha madaniy, pedagogik va til almashinuvining haqiqiy miqyosini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xitoyning "Hanshu", "Suyshu", "Tangshu" kabi sulola yilnomalarida Markaziy Osiyo xalqlari bilan olib borilgan diplomatik va ta'limiy aloqalar batafsil yoritilgan bo'lib, ularda elchilar tarkibi, ilmiy sovg'alar, kitoblar va bilim almashinuvi haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Arab va fors tarixchilari – Tabariy, Mas'udiy, Istahriy, Yoqut Hamaviy, Beruniy va Ibn Sino asarlarida ham O'rta Osiyoning ilmiy markaz sifatidagi o'rni qayd etilib, o'quv maktablari, madrasalar, ulamolar o'rtasidagi ilmiy aloqalar haqida aniq ma'lumotlar uchraydi.

Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning asarlari ham til, madaniyat va ta'lim tizimi o'zaro aloqalarini o'rganishda bebaho manbalardir. Arxeologik topilmalar – sopol tamg'alar, yozma bitiklar, qadimiy maktab va ustaxona qoldiqlari Ipak yo'li bo'ylab ilm-fan, hunar va ta'lim an'analari uzviy tarzda tarqalganini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Bu manbalar murakkab madaniy jarayonlarning tarixiy asosini keng yoritib beradi.

2. **Qiyosiy tahlil** – turli xalqlarning ta'lim tizimlari va madaniy merosiga Ipak yo'li orqali ko'rsatgan ta'sirini qiyosiy tahlil qilish ushbu tarixiy yo'nalishning naqadar keng qamrovli pedagogik maydon bo'lganini ko'rsatadi. Xitoy, Hindiston, Eron, Arab xalifaligi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi ilmiy almashinuv natijasida ta'limning turli shakllari bir-birini boyitgan. Masalan, Hindistonning matematik va astronomik bilimlari (Ariabhata, Brahmagupta maktabi) arab tiliga tarjima qilinib, Beruniy va Xorazmiy asarlarida yanada rivojlantirilgan. Bu esa keyinchalik Yevropaga o'tib, Renessans ilm-faniga ta'sir ko'rsatgan.

Xitoydagi Konfutsiy ta'lim an'analari Markaziy Osiyo orqali G'arbga yetib borgan bo'lsa, islom madrasalari tizimi Xitoy, Hindiston va Sharqiy Turkiston hududlarida yangi o'quv markazlarining shakllanishiga zamin yaratgan. Fors madaniyati esa adabiyot, diplomatiya va hujjatchilik sohasida o'z ta'sirini o'tkazgan bo'lib, bu an'ana turli davlat boshqaruvi tizimlarida qo'llanilgan.

Madaniy meros almashinuvining natijasida musiqa, me'morchilik, tasviriy san'at, hunarmandchilik va xalq qo'shiqlari xalqlararo o'xshashlik va sintezning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Ipak yo'li xalqlarning ma'naviy va ilmiy taraqqiyotini shakllantirgan transmilliy ta'lim makoniga aylangan.

3. **Arxeologik manbalarga tayanish** – arxeologik topilmalar Ipak yo'li bo'ylab madaniy almashuv jarayonlarini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Qadimiy shaharlarda, masalan, Samarqand, Buxoro, Merv va Xiva hududlarida olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan sopol idishlar, metall buyumlar, kulolchilik mahsulotlari, naqshli matolar va yozuvli bitiklar xalqlar o'rtasidagi san'at va hunarmandchilik tajribalari almashuvini ko'rsatadi. Masalan, Xitoy ipak mahsulotlari va atlas matolari Markaziy Osiyo bozorlarida topilgan bo'lib, ular Xitoy va Hindiston madaniyatining bu hududlarga kirib kelganidan dalolat beradi.

Shuningdek, arab va fors yozuvli qo'lyozmalar, diniy matnlar, ilmiy asarlar qadimiy maktab va madrasalarda topilgan bo'lib, bilim va ta'lim almashinuvi jarayonini tasdiqlaydi. Arxeologik topilmalar musiqiy asboblardan, o'ymakorlik buyumlari va keramika naqshlaridagi uslubiy o'xshashlik orqali ham xalqlar o'rtasidagi madaniy ta'sirni namoyon qiladi. Bu dalillar shuni ko'rsatadiki, Ipak yo'li nafaqat savdo va iqtisodiy almashinuv, balki pedagogik va madaniy merosning uzviy, transmilliy tizimini yaratgan. Arxeologik tahlillar, tarixiy manbalar bilan birgalikda, Ipak yo'li bo'ylab madaniy almashuvning ko'lamini va uning zamonaviy madaniyatlarga ta'sirini aniq yoritadi.

4. **Pedagogik yondashuv** – Ipak yo'li orqali ta'lim usullarining tarqalishi va rivoji ilmiy asosda keng o'rganilgan. Tarixiy manbalar, qadimiy madrasalar yozuvlari va arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo ilmiy markazlari Sharq va G'arb o'rtasida pedagogik almashinuvning asosiy vositasi bo'lgan. Masalan, Buxoro va Samarqand madrasalarida diniy ilmlar bilan bir qatorda mantiq, falsafa, tibbiyot, astronomiya va matematikaga oid ta'lim usullari qo'llanilgan. Ushbu maktablar orqali olimlar, talabalar va sayyohlar bilim va tajribalarni bir-biriga yetkazgan.



Arab va fors maktab tizimlaridagi qat'iy darslik va metodik yondashuvlar o'zbek madrasalariga kirib kelgan, mahalliy o'quv an'analari bilan uyg'unlashgan. Xitoydagi Konfutsiy ta'lim usullari esa axloqiy va amaliy tarbiya asoslarini rivojlantirishda sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ipak yo'li bo'ylab tarqalgan pedagogik usullar nafaqat ilmiy bilimlarni yetkazishga, balki turli madaniyatlar o'rtasida tushunish va o'zaro hurmatni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, ilm-fan markazlari va madrasalarda amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, matematik va astronomik kuzatishlar orqali ta'lim tizimi yanada rivojlangan. Natijada, Ipak yo'li pedagogik almashinuv va ta'lim usullarining uzviy rivojlanishi uchun transmilliy platformaga aylangan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalar quyidagicha izohlandi:

### 1. Ipak yo'lining shakllanishi va madaniy almashinuvga ta'siri

Ipak yo'li miloddan avvalgi II asrdan boshlab Xitoydan O'rta yer dengizigacha bo'lgan hududlarni bog'lagan ulkan tarmoq bo'lib, uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. Bu yo'l orqali o'zaro ta'sir jarayoni faqat tovar almashinuvi bilan cheklanmay, balki:

- ta'lim tizimlari,
- diniy-falsafiy maktablar,
- yozuv va til birliklari,
- ilmiy g'oyalar,
- san'at va hunarmandchilik tajribalari keng tarqalgan.

### 2. Pedagogik aloqalarning shakllanishida Markaziy Osiyoning o'rni

Markaziy Osiyo qadimdan ilm markazi sifatida tanilgan. O'zbekiston hududida joylashgan Buxoro, Samarqand, Xiva, Termiz kabi shaharlarda ilmiy maktablar shakllangan. Karvon yo'llari orqali boshqa mamlakat olimlari ushbu markazlarga kelgan va o'z bilimlarini almashgan. Ayniqsa:

1. Buxoro madrasalari – islom ilmlari, mantiq, tibbiyot bo'yicha mashhur edi.
2. Samarqand rasadxonalari, xususan Ulug'bek akademiyasi astronomiya bo'yicha markaz bo'lgan. Shu tariqa ilm almashinuvi transmilliy pedagogik jarayonga aylangan.

### 3. Madaniy aloqalar va san'atning yoyilishi

Ipak yo'li xalqlarining san'at uslublari bir-biriga ta'sir ko'rsatgan. Masalan:

1. Xitoy ipakchilik san'ati Markaziy Osiyoga kirib kelgan;
2. O'zbekiston hududidan esa kulolchilik, metallga ishlov berish, naqsh san'ati Sharqqa tarqalgan;
3. musiqa asboblari – dutor, nay, doira kabi asboblari ko'plab hududlarda o'z variantlariga ega bo'lgan.

### 4. Til va yozuv tizimlarining tarqalishi

Ipak yo'li orqali o'zbek tiliga xos ko'plab atamalar qo'shni tillarga o'tgan. Fonetik moslashuv jarayonida ular mahalliy talaffuzga moslashgan. Masalan:

- “karvon”, “bozor”, “atlas” atamalari turli tillarga o'tgan. Shuningdek, arab, fors va turkiy yozuvlar ham o'zaro almashib borgan.

### 5. Din va falsafa yoyilishi

Ipak yo'li orqali buddizm, islom, zardushtiylik, manixeylik keng tarqalgan. Har bir din o'z ta'lim tizimini olib kelgan. Masalan:

- budda monastirlari – Hindiston va Xitoyda ta'lim markazlari bo'lgan;
- islom madrasalari – Markaziy Osiyoda ilm-fan rivojining asosiy poydevori bo'lgan.

### 6. Hozirgi zamonda Ipak yo'li merosi

Zamonaviy ta'lim tizimi va madaniy diplomatiyada ham Ipak yo'li tamoyillari davom etmoqda. Bugun:

- xalqaro universitetlar hamkorligi,
- madaniy almashinuv dasturlari,
- turizm va merosni asrash loyihalari ushbu tarixiy yo'lning zamonaviy ko'rinishidir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalar ikki asosiy omil bilan belgilanadi:

1. Hududiy markaziylik – Markaziy Osiyo ilmiy markaz sifatida Sharq va G'arb ta'lim an'analari birlashtirgan.
2. Savdo orqali muloqot – karvonlar doimiy aloqa vositasi sifatida pedagogik bilim va madaniyatning uzluksiz oqimini ta'minlagan.

Tarixiy manbalar (Xitoy yilnomalari, arab geograflari asarlari, yunon tarixchilarining ishlari) mazkur jarayonlarning obyektiv dalillarini beradi. Arxeologik topilmalar – qo'lyozmalar, san'at buyumlari, maktab va monastir qoldiqlari esa ilmiy asosni mustahkamlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ipak yo'li insoniyat tarixida nafaqat iqtisodiy savdo yo'li sifatida, balki pedagogik va madaniy aloqalar markazi sifatida ham muhim o'rin tutadi. Ushbu yo'l Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini birlashtirib, ilm-fan, madaniyat, ta'lim tizimi va diniy-ma'rifiy merosning transmilliy rivojlanishiga zamin yaratgan. Tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va sharqshunoslik materiallari shuni ko'rsatadiki, Ipak yo'li bo'ylab yashagan xalqlar nafaqat tovar almashgan, balki ilmiy bilim, pedagogik tajribalar, san'at va madaniy an'analarni ham bir-biriga yetkazgan.

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududi, ushbu jarayonning markaziy nuqtasi bo'lgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Merv kabi shaharlar tarixiy davrda ilmiy markaz sifatida tanilgan. Bu hududlarda madrasalar, rasadxona, kutubxonalar va amaliy ustaxonalarda ta'lim tizimi rivojlangan. Masalan, Ulug'bek rasadxonasida astronomiya va matematika bo'yicha ta'lim olib borilgan, Buxoro madrasalarida esa islom ilmlari bilan bir qatorda mantiq, tibbiyot va falsafa o'rgatilgan. Arab, fors va turkiy olimlar ushbu markazlarga kelib, o'z bilimlarini talabalarga yetkazgan, shu bilan pedagogik almashinuv jarayoni kuchaygan. Mahmud Qoshg'ariy, Beruniy, Ibn Sino va Al-Xorazmiy kabi allomalar o'z asarlari orqali Ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi ilmiy va madaniy muloqotning asosini yaratgan.

Arxeologik topilmalar bu jarayonning dalili sifatida xizmat qiladi. Xalqaro ekspeditsiyalar natijasida topilgan sopol, keramika, metall va mato buyumlari turli madaniyatlarning bir-biriga ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, Xitoydan kirib kelgan ipak va atlas matolari Markaziy Osiyo bozorlarida keng tarqalgan, hind va fors yozuvli qo'lyozmalar esa madrasalarda ilmiy tajriba almashinuv uchun asos bo'lgan. Musiqiy asboblari, o'ymakorlik va naqsh san'ati xalqlar o'rtasidagi madaniy sintezning yorqin namunalari sifatida saqlanib qolgan.

Ipak yo'li orqali pedagogik aloqalar ham rivojlangan. Xitoy, Hindiston, Eron va Arab dunyosi ta'lim tizimi unsurlari Markaziy Osiyo pedagogik maktablariga kirib, mahalliy o'quv an'analari bilan uyg'unlashgan. Madrasalarda amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari, matematik va astronomik kuzatishlar ta'lim sifatini oshirgan. Shu tariqa Ipak yo'li transmilliy pedagogik platformaga aylangan, u turli madaniyatlar o'rtasida ilmiy bilim almashuvini ta'minlagan.

Madaniy aloqalar ham muhim rol o'ynagan. Hunarmandchilik, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa va adabiyot sohalarida xalqlar o'rtasidagi almashinuv davom etgan. Masalan, Xitoy ipakchilik va atlas matolari, Hindiston rang-barang naqsh san'ati, Eron va Arab davlatlarining adabiy an'analari Markaziy Osiyo hududida uyg'unlashib, o'zbek madaniyatining boyligiga hissa qo'shgan. Ushbu jarayonlar bugungi global madaniy integratsiya va xalqaro hamkorlik dasturlarining tarixiy poydevorini tashkil qiladi.

Shunday qilib, Ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalar insoniyat tamaddunining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat tarixiy savdo yo'li, balki keng qamrovli ilmiy-ma'rifiy tizim sifatida shakllangan. Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududi ushbu jarayonlarda yetakchi ilmiy-madaniy markaz bo'lgan va o'z ahamiyatini hanuz yo'qotmagan. Bu meros bugungi kunda ta'lim, ilm-fan va madaniy diplomatiya sohalarida ham o'z aksini topmoqda, xalqaro hamkorlik va madaniy integratsiyaning uzviy tarkibiy qismiga aylangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Beckwith, C. The Silk Road: A New History. Princeton University Press.
2. Hansen, V. The Silk Road: A New History with Documents.
3. Boulnois, L. Silk Road: Monks, Warriors & Merchants.
4. Starr, S. Frederick. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age.
5. Golden, P. An Introduction to the History of the Turkic Peoples.
6. Barthold, V. V. Turkestan in the Age of the Mongols.
7. Al-Biruni. Tanlangan asarlar – ilmiy nashrlar.
8. Xitoy yilnomalari: Hanshu, Tangshu tarjimalari.
9. Ibn Sino. Tib qonunlari – tarixiy ilmiy meros.
10. UNESCO. Silk Roads Programme – ilmiy maqolalar va hisobotlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.